Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

IMOM DORIMIYNING HADIS ILMIDAGI O‘RNI

Abduhalilova Mahbubaxon Azamatjon qizi
Imom Buxoriy nomidagi Tosheknt islom instituti
Bakalavr bosqichi 4kurs talabasi

Tarixiy jarayonda o‘z sohasida mashhur bo‘lgan ko‘plab olimlarga turli unvon va laqablar berilgan. Hadis ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Imom Dorimiy singari yetuk muhaddislarning ilmiy darajasini ifodalash uchun ham o‘sha davrga xos bo‘lgan o‘ziga xos akademik unvonlar qo‘llanilgan. Bu unvonlarning hadisshunoslikdagi aniq ma’nolari, ular qaysi mezonlar asosida berilgani hamda ularda mubolag‘a bor-yo‘qligi kabi masalalar asosiy mavzumizdan tashqari bo‘lgani sababli, quyida faqat o‘sha unvon va e’tiroflarni keltirib o‘tamiz:

1. Muhaddislarning imomi Ahmad ibn Hanbal Dorimiy haqida “sayyid va imom” (hadis ilmidagi peshvo) iboralarini qo‘llagan. Shuningdek, u Dorimiyning “siqa” (ishonchli) va hattoki ishonchlilik darajasidan ham yuqori maqomda ekanini ta’kidlagan. [1]
2. Abdulloh ibn Ahmad ibn Hanbal shunday ma’lumotni yetkazadi: Otamdan “hadis hofizlari kimlar?” deb so‘radim. Otam Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Zur’a ar-Roziy, Abdulloh ibn Abdurahmon ad-Dorimiy va Hasan ibn Shuja al-Balhiyning ismlarini tilga oldi. Keyin bular orasida yodlash qobiliyati (hifzi) eng kuchli bo‘lgani kimligini so‘radim. Otam shunday javob berdi: “Hadislarni eng yaxshi serd qiladigani (ya’ni ma’nosi va sanadining holatiga to‘xtalmay, shunchaki matnini tez o‘qish bilan kifoyalanadigani) Abu Zur’a ar-Roziy, hadislarni eng chuqur biladigani Buxoriy, ishini eng puxta qiladigani (mutkini) Dorimiy, eng ko‘p boblarni to‘plagani esa Hasan ibn Shujadir”. [2]
3. Abu Hotim Dorimiy haqida “siqa va saduq” (rostg‘oy) ta’birlarini qo‘llagan. Shuningdek, u Dorimiyni “o‘z davri ulamolarining imomi” bo‘lganini e’tirof etgan. [3]
4. Ibn Hibbon va Xatib al-Bag‘dodiy uni “hofiz va mutkin” (ishini puxta qiluvchi, mustahkam olim) kabi yuksak iboralar bilan sifatlaganlar. [4]
5. Abu Nuaym, Ibn Asokir va Mizziy kabi olimlar o‘z asarlarida u haqida gapirganda “al-hofiz” unvonini ishlatganlar. [5]
6. Imom Navaviy Abu Muhammad ad-Dorimiy o‘z zamonasining eng yetuk hadis hofizlaridan biri bo‘lganini, kuchli xotira (hifz) va fazilatda unga teng keladigan olim kam topilishini ta’kidlagan. [6]
7. Ibn Daqiqul’iyd Dorimiyning mashhur olim, yetakchi hadis hofizlaridan va ilm dunyosining ulkan tayanchlaridan biri bo‘lganini aytgan. [7]
8. Ibn Abdulhodi as-Solihiy ad-Dimashqiy hamda Imom Zahabiy u haqida gapirib: “Imom, hofiz, Samarqandning Shayxulislomi” kabi iboralar bilan madh etganlar. [8]
9. Salohuddin as-Safadiy Dorimiy uchun “al-hofiz, al-imom va sohibul-Musnad” iboralarini qo‘llagan va uning ilm ummonidan bahramand bo‘lgan mustaqil mujtahid ekanini, birovga ko‘r-ko‘rona muqallid bo‘lmaganini ta’kidlagan. [9]
10. Ibn Rajab al-Hanbaliy Dorimiyning eng sara hadis hofizlaridan va o‘z ilmiga to‘liq amal qiluvchi peshvolardan biri bo‘lganini ifoda etgan. [10]
11. Ibn Hajar al-Asqaloniy u haqida “al-hofiz, sohibul-Musnad” iboralari bilan birga, “siqa, fozil va mutkin” degan ta’riflarni qo‘llagan hamda uning roviylar tabakasida o‘n birinchi tabaqadan joy olganini ta’kidlagan. [11]
12. Jaloluddin es-Suyutiy u haqida “al-hofiz, ahadul-a’lom” (ko‘zga ko‘ringan yetakchi shaxslardan biri) degan bo‘lsa, Xayruddin az-Zirikliy: “Abdulloh ibn Abdurahmon ad-Dorimiy hadis hofizi, fozil va mufassir olimdir. U Samarqandda hadis va osor (sahobalarning so‘zlari) ilmining yoyilishi hamda rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan”, deya e’tirof etgan. [12]

Ko‘rinib turganidek, manbalarda Dorimiy haqida imom, sayyid, siqa, saduq, hofiz va mutqin kabi yuksak iboralar qo‘llanilgan. Bu iboralar ichida “imom” ta’biri hadis ilmidagi eng yuqori darajani ifodalaydi. Shuningdek, bu ibora hadisshunoslikda hokim, hujjat va hofiz unvonlarining o‘rniga ham ishlatiladi. Olimga nisbatan siqa, saduq yoki mutqin iboralari qo‘llanilganda, uning yetkazgan rivoyatlari diniy hukmlarga asos va hujjat bo‘lishga to‘liq yaroqli ekani tushuniladi.

Yuqoridagi barcha ma’lumotlardan kelib chiqib, bemalol aytish mumkinki, qaysi olim o‘z asarida Dorimiyning tarjimai holiga to‘xtalgan bo‘lsa, uni doimo yuksak hurmat bilan yodga olgan, faqat maqtagan va taqdirlovchi unvonlarni qo‘llagan.

Dorimiyning Asarlari

Ilmiy jihatdan bunday yuksak mavqega ega bo‘lgan Imom Dorimiyning ko‘plab asarlar yozgani xayolga kelishi tabiiy. Biroq uning hayoti va faoliyati haqida ma’lumot beruvchi biografik (tabaqot) kitoblarda olimning faqat oz sonli asarlari haqida so‘z yuritiladi. Dorimiy aslida ham kam asar yozganmi yoki asarlarining bir qismi davrlar o‘tishi bilan yo‘qolib ketganmi – bu borada qat’iy bir gap aytish qiyin.

Ko‘plab manbalarda Dorimiyning “Musnad”, “Jome’” va “Tafsir” nomli asarlar yozgani ta’kidlanadi. Biroq bugungi kunda bizgacha faqat “Musnad” nomli asari yetib kelgan. Uning “Tafsir” kitobi kunimizgacha saqlanib qolmagani sababli yo‘qolgan deb hisoblanadi. “Jome’” asari esa katta ehtimol bilan “Musnad”ning aynan o‘zidir. Chunki ushbu kitobning ba’zi qo‘lyozma nusxalarida “Kitabut-Musnadis-Sahihil-Jome’” yoki “Kitabul-Musnadil-Jome’” shaklida, Musnad va Jome’ lafzlari birgalikda yozilgani kuzatilgan.

Shuningdek, Dorimiydan taxminan o‘n yil keyin vafot etgan hadis hofizi Ahmad ibn Sayyor al-Marvaziy Dorimiy haqida gapirib: “Ilmi go‘zal edi, Musnad va Tafsir nomli asarlar yozgan”, deya ta’rif beradi. Uning “Musnad”idan tashqari boshqa asarni tilga olmagani ham “Jome’” alohida kitob bo‘lmay, balki “Musnad”ning o‘zi ekanini tasdiqlaydi.

Abdulhay al-Laknaviyning naql qilishicha, Dorimiyning Jome’, Musnad va Tafsir kabi bir qator asarlari bo‘lgan. Uning fikricha, bizgacha yetib kelgan va hozir qo‘limizda bo‘lgan kitob uning “Jome’” nomli asaridir, asl “Musnad”i esa yo‘qolib ketgan.

Ismoil Posho al-Bag‘dodiy o‘zining bibliografik asarida Dorimiyga tegishli “Sulasiyot fil-hadis”, “Kitabus-Sunna fil-hadis”, “Kitabu savmil-mustahaza val-mutahayyira” va “Musnad” nomli asarlar borligini aytadi. Bundan tashqari, Xayruddin az-Zirikliy ham Dorimiyning “Musnad fil-hadis”, “al-Jome’us-sahih” va “Sulasiyot” nomli kitoblari bo‘lganini qayd etadi.

Aslida, bu yerda zikr qilingan “Musnad” asari “al-Jome’us-sahih” bilan bitta kitobdir. “Sulasiyot” esa mustaqil asar bo‘lmay, “Musnad” tarkibidagi sulosiy (ya’ni atigi uchta roviy vositasida bevosita Payg‘ambarimizga yetib boradigan) oliy sanadli rivoyatlarning alohida bir bo‘lim qilib to‘plangan shaklidir.

Xulosa qilib aytganda, manbalarda Dorimiyga nisbat berilgan asarlarni quyidagicha tartiblash va izohlash mumkin:

- 1. Sunan: Ba’zi hadischilar tomonidan “Musnad” deb ham nomlangan bo‘lib, Dorimiyning bizgacha to‘liq yetib kelgan yagona va eng mashhur asaridir.
- 2. Musnad: Alohida kitob sifatida bizgacha yetib kelmagan. Ko‘plab mualliflar uning faqat nomini keltirish bilan kifoyalanib, tarkibi haqida izoh bermaganlar. Buning ustiga, Dorimiy bilan zamondosh bo‘lgan va hijriy 280-yillar atrofida vafot etgan boshqa bir olim — Usmon ibn Said ad-Dorimiyning ham katta hajmli “Musnad” asari bo‘lgani ma’lum. Mashhur olim Ibnus-Saloh Ahmad ibn Hanbal, Ishoq ibn Rohavayh, Abd ibn Humayd va Dorimiy kabi olimlar hadislarni sahobiylarning ismlariga ko‘ra (musnad shaklida) tartiblaganlarini aytgan. Ibnus-Saloh nazarda tutgan Dorimiy, aslida Usmon ibn Said ad-Dorimiy bo‘lishi mumkin. Keyinchalik bu ikki olimning nisbalari bir xil bo‘lgani uchun asar yanglishib biz so‘z yuritayotgan Imom Dorimiyga nisbat berilgan. Ismoil Lutfiy Chakanning “Dorimiyning kunimizgacha yetib kela olgan yagona asari — ba’zi hadischilar Musnad deb atagan

Sunanidir” degan fikri ham “Musnad” alohida boshqa bir asar bo‘lmay, aynan “Sunan” ekanini ko‘rsatadi.

• 3. Jome’: Izlanishlarimizga ko‘ra, bunday nomdagi asar borligi haqida birinchi bo‘lib Xatib al-Bag‘dodiy so‘z ochgan. U Dorimiyning biografiyasida olimning “Musnad” va “Jome’” nomli asarlar yozganini ta’kidlaydi. Keyinchalik Dorimiy haqida yozgan olimlar ham Xatibning ushbu fikriga ergashganlar. Biroq yuqorida aytib o‘tilganidek, “Jome’” asari “Musnad”dan farqli boshqa bir kitob emas, balki “Musnad”ning aynan o‘zidir. Qo‘lyozma nusxalarda bu ikki nomning birga kelishi ham buni isbotlaydi.

• 4. Tafsir: Bugungi kunda qo‘limizda Dorimiyning bunday asari mavjud emas. Manbalarda kitobning faqat nomi keltirilgan bo‘lib, mazmuni haqida ma’lumot yo‘q. Na tafsir kitoblari orasida va na boshqa manbalarda ushbu kitobning matni yoki parchalari uchramaydi.

• 5. Sulasiyot: Ismoil Posho al-Bag‘dodiy va Xayruddin az-Zirikliy ushbu asarni mustaqil kitob sifatida zikr qilishgan.

• 6. Savmul-mustahaza val-mutahayyira: Ismoil Posho al-Bag‘dodiy ushbu asarni Imom Dorimiy kitoblari qatoriga qo‘shib xatoga yo‘l qo‘ygan. Chunki bu asar hijriy 449-yilda vafot etgan boshqa bir shofe’iy olim — Abul-Faraj Muhammad ibn Abdulvohid ad-Dorimiyga tegishlidir.

• 7. Kitabus-Sunna: Faqatgina Ismoil Posho al-Bag‘dodiy ushbu asarni tilga olgan. Uning bu ma’lumotni qaysi manbadan olgani noma’lum, chunki boshqa hech bir manbada bunday nomdagi kitob yoki uning tarkibi haqida ma’lumot uchramaydi.

Yuqorida berilgan barcha izohlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, shunday xulosaga kelish mumkin: “Musnad” va “Jome’” asarlari “Sunan”dan farqli alohida kitoblar bo‘lmay, balki o‘sha mashhur “Sunan” kitobining boshqacha nomlanishidir. “Kitabus-Sunna” va “Tafsir” asarlari esa tarix bo‘ronlarida yo‘qolib ketgan bo‘lib, bizgacha yetib kelmagan.

Bu borada yana bir ehtimol bor: Qanday qilib “Sulasiyot” deganda Dorimiy “Sunan”i ichidagi uchta roviyli muayyan hadislar majmuasi nazarda tutilgan bo‘lsa, xuddi shunday, “Kitabus-Sunna” va “Tafsir” nomlari bilan ham mustaqil kitoblar emas, balki Dorimiy “Sunan”ining ma’lum bir bo‘lim va boblari nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Imom Dorimiyning asarlari ichidan faqatgina bitta asari davrimizgacha yetib kelgan. Bu ham bo‘lsa bugungi kunda biz tadqiq qilayotgan mashhur kitobdir. Yuqorida ta’kidlanganidek, ushbu asar turli davrlarda olimlar tomonidan sharoitga qarab Sunan, Musnad va Jome’ kabi turlicha nomlar bilan atab kelingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xatib al-Bag‘dodiy, Torihi Bag‘dod, XI jild, 210-212-betlar.
2. Mizziy, Tehzibul-Kamol fi Asmair-Rijal, VI jild, 173-bet.
3. Ibn Abi Hotim, al-Jarh vat-Ta’dil, II jild, 99-bet; Abu Abdilloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abdilhodi ad-Dimashqiy es-Solihiy, Tabaqatu Ulemail-Hadis, II jild, 216-bet.
4. Ibn Hibbon, es-Siqat, VIII, 364; Xatib al-Bag‘dodiy, Torihi Bag‘dod, XI jild, 212-bet.
5. Nasafiy, al-Qand fi Zikri Ulemai Samarqand, 172-bet; Ibn Asokir, Torihi Medineti Dimashq, XXIX jild, 310-bet; Mizziy, Tehzibul-Kamol fi Asmair-Rijal, XV jild, 210-bet.
6. Abu Zakariyo Yahyo ibn Sharaf an-Navaviy, al-Minhoj fi Sharhi Sahihi Muslim, Doru Ihyait-Turasil-Arabiy, Bayrut, 1392, I jild, 85-bet.
7. Ibn Daqiqul’iyd, al-Ilmam fi Ma’rifeti Ahadisil-Ahkam, V jild, 183-bet.
8. Abu Abdilloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abdilhodi ad-Dimashqiy es-Solihiy, Tabaqatu Ulemail-Hadis, II jild, 216-bet; Zahabiy, al-Koshif, Dorul-Qibla, Jidda, 1992, I jild, 567-bet; Tazkiratul-Huffoz, II jild, 90-bet; Siyaru A’lamin-Nubala, XII jild, 224-bet.

9. Salohuddin Xalil ibn Izziddin as-Safadiy, al-Vafi bil-Vafayat, thk. Ahmed Arnavut, Doru Ihyait-Turas, Bayrut, 2000, XVII jild, 127-bet.
10. Ibn Rajab al-Hanbaliy, Sharhu Ilelit-Tirmiziy, I jild, 497-bet.
11. Ibn Hajar al-Asqaloniy, Tehzibut-Tehzib, V jild, 294-bet; Taqribut-Tehzib, 311-bet.
12. Suyutiy, Tabaqatul-Huffoz, Dorul-Kutubil-Ilmiyya, Bayrut, 1403, 239-bet.
13. Abduhalilova Mahbuba 403-guruh talabasi